



UO'K: 19.1

ABU ALI IBN SINO BUYUK FAYLASUF VA GUMANIST OLIM

АБУ АЛИ ИБН СИНО, ВЕЛИКИЙ ФИЛОСОФ И ГУМАНИСТ

ABU ALI IBN SINO, A GREAT PHILOSOPHER AND HUMANIST

Raupova Ra'no Soyibovna¹ ¹Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD)Bobokalonova Shaxrinoz² ²Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti III-bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolada Abu Ali ibn Sino jahon madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk olim, tabiatshunos, faylasuf, tibbiyot ilmining donishmandi, astronom, matematik, musiqashunos, yozuvchi va shoir ekanligi va uning axloqiy, ta'limiy masalalarni bugungi kundagi ahamiyatiga oid fikrlar nazariy jihatdan bayon etilgan. Abu Ali ibn Sino dahosini ulug'lashda va yanada yuksaklikka ko'tarishda ushbu maqola keyingi ilmiy faoliyatlarda katta g'oyaviy-siyosiy va amaliy ahamiyat kasb etishi tahlil etilgan.

Аннотация

В статье теоретически изложены взгляды Абу Али ибн Сины - великого ученого, внесшего несравненный вклад в мировую культуру, естествоиспытателя, философа, ученого-медика, астронома, математика, музыковеда, писателя и поэта, и его значение в морально-нравственных и образовательных вопросах современности. Анализируется, что данная статья будет иметь большое идейно-политическое и практическое значение в будущей научной деятельности по прославлению и дальнейшему возвышению гения Абу Али ибн Сины.

Abstract

The article theoretically presents the views on the great scientist Abu Ali ibn Sino, who made an incomparable contribution to world culture, a naturalist, philosopher, sage of medical science, astronomer, mathematician, musician, writer and poet, and his importance in moral and educational issues today. It is analyzed that this article will have great ideological, political and practical significance in subsequent scientific activities in glorifying and elevating the genius of Abu Ali ibn Sino.

Kalit so'zlar: Borliq, insonparvarlik, axloqiy tarbiyalash, bag'rikenglik, insoniylik, tarbiya, ma'naviy etuklik, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya, ilm-fan.

Ключевые слова: Бытие, гуманность, нравственное воспитание, толерантность, человечность, воспитание, духовная зрелость, духовность, образование, воспитание, наука.

Key words: Existence, humanity, moral upbringing, tolerance, humanity, upbringing, spiritual maturity, spirituality, education, upbringing, science.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, mustaqilligimiz tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy merosini o'rganish, undan xalqning bebaho xazinasiga foydalanishga keng yo'l ochildi. Bugungi kunda jahon madaniyati xazinasiga o'zlarining noyob ma'naviy meroslarini qo'shgan buyuk ajdodlarimiz nomlari va ilmiy ta'limotlari yuksak qadrlanib o'rganilmoqda.

Bugungi kunda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish asosiy maqsadimiz ekan, shu maqsadga erishishda mustaqil insonlarni tarbiyalash muhim vazifamizdir. Bu ishlarni amalga oshirishda buyuk allomalarimiz ijodi, ta'limotining o'rni beqiyosdir [1].

Jahon ilmiy jamoatchiligi va butun xalqlar bu sanani munosib nishonlamoqdalar. Ibn Sino jahon madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk olim, tabiatshunos, faylasuf, tibbiyot ilmining donishmandi, astronom, matematik, musiqashunos, yozuvchi va shoir edi. O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining yuksak cho'qqisiga olib chiqqan ulug' mutafakkirlaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mustaqillik tufayli Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlari, alloma shoir-u fuzalolarimizning tarixi, ularning boy ma'naviy meroslarini o'rganish baxtiga muyassar bo'ldik. Yurtdoshimiz Ibn Sino yaratib qoldirgan ma'naviyat uzoq asrlar osha mana bugun bizgacha etib keldi. Bu meros ma'naviyat durdonalari butunjahon xalqlariga xizmat qilmoqda. Uning ta'limotiga ko'ra yagona Xudo vojib al-vujudni haqiqiy va abadiyligini undan boshqa hech qanday mangu borliq yo'qligini isbotlashga bag'ishlagan. Shuning uchun ham bu asarining nomini "Ilohiyot" deb atagan. Ibn Sino faylasuf shoir sifatida o'zining besh tomlik "Tib qonunlari" kitobida insonda uchraydigan turli kasalliklarning kelib chiqish sabablarini, ularning sog'ligi uchun tashqi muhit, mehnat, ob-havo, oziq-ovqat, badan-tarbiya, his-tuyg'u, musiqa, ko'ngil ochishlarning tutgan o'rnini va ular yashashga qanday ta'sir qilishini ifodalab berdi [1].

Bundan 25 yil muqaddam 1980 yilda Ibn Sino tavvaludining 1000 yilligi munosabatini YuNESKO Bosh konferensiyasi XX sessiyasi qaroriga binoan (Parij 1978) jahon jamoatchiligi keng nishonlab, fan va madaniyat bayrami sifatida o'tkazgan edi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Abu Ali ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Buyuk allomaning tabobat fani sohasidagi xizmatlari ayniqsa buyukdir. U o'z asarlarida bu qadimiy fanni yangi, yuqori bosqichga ko'tardi. Biz bu durdonalarni faxr bilan milliy qadriyatlarimiz sifatida e'zozlaymiz. Har bir xalq uchun uning ajdodlari tomonidan yaratilib va ma'naviy boylik sifatida qadrlanib, asrab kelinayotgan har bir narsa qimmatlidir.

O'zining butun bilimi va hayotini insoniyat baxt-saodati va salomatligiga, hamda bunyodkorlik uchun kurashga bag'ishlagan buyuk vatandoshimizning hayoti va ko'p qirrali ijodini har tomonlama o'rganish bizning sharaflı burchimiz hisoblanadi.

O'rta Osiy xalqlari madaniyatini O'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri Abu Ali ibn Sino bo'lib, u Ovro'poda Avitsenna nomi bilan mashhurdir. Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy olim va faylasuf bo'lib, asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi. Lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari etib kelgan [2].

Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi.

Eng muhim falsafiy asarlari: "Kitob ash-shifo", "Kitob an-najot", "Risola fil ishq", "Risola at-tayr", "Mabda va maod", "Al-ishorot va tanbihot", "Mavjudotlar haqiqati va sifatlarining silsila va o'zaro sababiy aloqalar haqida", "Saodatga etish yo'li haqida", "Axl risolasi", "Aqliy ilmlar tasnifi", "Nafs risolasi", "Manzil tadbiri", "Tush ta'biri", "Qadr risolasi", "Murshid ul-kifoya", "Azxaviya risolasi" va boshqalar [3].

Abu Ali Husayn ibn Sino o'rta asrlar falsafiy nazariyasini asoslab bergan buyuk mutafakkir, ash-Shayx ar-Rais (hakimlar sarvari) va hujjat al-Haqq (Haqiqatning isboti) Nug'ubiy allomadir. Hozirgi zamon buyuk faylasuflarining iborasi bilan aytganda, Ibn Sino musulmon olamining eng ulug'vor faylasufidir.

Hakimning eng muhim falsafiy g'oyalari: Koinot Haqning yoki Avvalgi asos (al-mabda al-avval) nurlarining tarovishi bilan vujudga kelgan. Bu olamning boshqaruvchisi faol Aql (ruh)dir [4].

Har bir mavjudod noqislikdan komilikka intiladi. Komilliy go'zallikdir. Noqislikdan komillikka intilish harakati umumjahoniy ishq qonunidir. Barcha haqiqiy yangi bilimlar ichki (ruhiy) ko'z bilan paydo etiladi.

Mutafakkirning nazariy ta'limoticha, falsafaning eng asosiy va hammadan muhim ma'lumotlaridan biri borliq yoki vujudlik tushunchasidir.

Yuqorida eslatilganidek, koinot Haq yoki Avvalin mabda (asos) nurlarining tarovishila vujudga kelgan. Haqdan yoki eng Sof va Mutlaq Borliq, Mavjudlikning yagona manbai ruhiy mohiyat (fada), Avvalgi aql (al-aql al-avval) tarovish etib, undan esa Ikkinchi Aql tarovish etadi [5].

Mazkur jarayon bu olamning boshqaruvchisi O'ninchi Aqlning vujudga kelishigacha davom etadi. O'ninchi Aqlning Musulmon hakimlari Hazrat Jabroil bilan tenglashtirganlar. Shu yo'sinda Ibn Sino falsafaning eng murakkab muammosi hisoblangan turli ko'rinish, turli shakl va ko'p qirra-darajali olamning Yagona Sababi deb ataluvchi Haqdan kelib chiqish masalasini hal etishga intilgan.

Mutafakkirning bu boradagi mulohazalari uni barcha mavjudodlarning mavjudligini vojib (zaruriy), mumkin (imkonli) va mumtaani (imkonsiz) mavjudodlar turlariga bo'lishga olib keladi. Ibn Sinoning aytishicha barcha mavjudotlar o'zidan o'zi vojib al-vujud bo'la oladi yoki bo'la olmaydi.

FALSAFA

Mavjudligi vojib al-vujud (zaruriy) bo'lmaganlar esa imkonli mavjud yoki imkonsiz mavjud bo'la oladi. Demak, mavjud bo'lish, o'zidan o'zi imkonli bo'la oladi va agar uning shartli sababi bo'lsa, unda u imkonli mavjud bo'la oladi va agar shu sabab bo'lmasa, imkonsiz mavjud bo'ladi. Allomaning fikricha, mazkur uch tushuncha bir-biridan kattaroq farq qiluvchi va ashyolar hisoblanuvchi mohiyat va vujud orasidagi tafovut bilan mustahkam bog'liqdir.

Ibn Sino ashyolarining umumiy xususiyatini ko'rsatuvchi ularning vujudligi va sifatiiy farqini ifodalovchi mohiyatini ajrata bilish haqidagi falsafiy g'oyasi barcha g'arb va musulmon faylasuflari tomonidan qabul etilib, ularning nazariy faoliyatlariga kuchli ta'sir etgan.

Mohiyatga nisbatan vujudlikning ustunligini e'tirof etuvchi Borliq faylasufi yuksak unvoniga ega bo'lgan Ibn Sinoning borliq nazariyasining bir-biriga bog'liq bo'lgan turli tomonlarini aniqlashdan maqsadi Yagona vojib al-vujud-Haqdan, bir tomondan, imkonli vujud, agar uning borlig'i tarovishga bog'liq bo'lsa va ikkinchi tomondan, zaruriy vujudning kelib chiqishini, agar uning mavjudligining manbai vojib al-vujudligi tufayli bo'lsa, olamning tarovish-la paydo bo'lishini ko'rsatishdir.

Mutafakkir qarashicha, mohiyatlar faqat mujarrad mavjudlikka ega, zero ular tashqi olamda emas, ongdan mavjuddir. Oliy Sonining yordami bilan mavjudlik mohiyatiga bog'lansa, ashyo vujudga keladi. O'shanda faqat ashyolar uchun mohiyatli va muhim bo'lmagan zaruriy hisoblanmagan, bevosita shakllarini namoyish etuvchi tashqi jihatdagi har qanday turli xildagi xosiyat va xususiyatlarni ularga qo'shmoq lozim [6].

Ibn Sino fikricha, zaruriy vujudda mohiyat va mavjudlik tengdir. Imkonli mavjudlik paydo bo'lgan bo'lsa-da, biroq u doimiy mavjud bo'lmaydi. Masalan, voqelikni haqiqiy odam-Zayd bor. U mavjud, biroq u mavjudligini boshlaydi va yana mavjudligini tugatadi, oxiriga etkazadi. Mavjudligidan oldin, uning mohiyati faqat imkonli edi. U mohiyat, mavjudlik bilan bog'lanishi ham mumkin va aksincha bog'lanmasligi ham mumkin. Voqelikda, Zayd mavjud bo'lsa-da, o'zicha uning mohiyati imkonli bo'lib qoladi, ya'ni mavjud bo'lishi ham mumkin yoki mavjud bo'lmasligi ham mumkin, shunday bo'lmasa Zaydning mavjud bo'lmasligi amalga oshmas edi u o'lmas edi.

Binobarin, borliqning bir turi imkonli borliqdir. Mavjud bo'lishi va mavjud bo'lmasligi imkonli bo'lgan ashyo sababga ehtiyojlidir. Demak, ushbu sabab sifatida yana bir imkonli vujud bo'lishi mumkin va shu tariqa mazkur jarayon cheksiz bo'ladi: Shu o'rinda yana bir tafovutni anglamoq lozim. Borliq taxminiy, zaruriy bo'la oladi va bu shu ma'nodaki, u yana bir borliq bo'lsa, bor bo'la oladi va yoki mutlaq zaruriy bo'la oladi, ya'ni u o'z mohiyati tufayli bordir. Boshqacha aytganda mutlaq borliq uldirki, u o'zi tufayli mavjud bo'ladi, taxminiy zarurlik esa o'zgacha sabab bilan mavjud bo'ladi. Mutlaq borliqning mohiyati uning borlig'idadir. Binobarin, imkonli borliqning mavjudligi, ya'ni bor bo'lib va yo'qolib ketuvchi ashyolar mavjudligi uchun zaruriy mutlaq borliqni taxmin qilmoq kerak [7].

Ibn Sino shuningdek buyuk faylasuf ham edi. U Aritotelning mantig'i va tugab borayotgan grek metafizikasidan olingan tushunchalar yordamida islom qoidalarini ta'riflashga urindi. Ibn Sino uchun Xudo 1-sabab yoki yaratuvchi hisoblanardi, ammo yaratilgan dunyo xudodan chiquvchi emanatsiyalar majmuyi sifatida tushunilardi. Inson ruhi ilohiy nur emanatsiyasidan tug'iladi, insonning hayoti esa nur sari Xudoga intiladi.

Ibn Sinoning falsafiy sistemasini ifodalovchi asarlarida "Kitob un-najot", falsafiy bilimlar mantiq, fizika, matematika, metafizika tartibida beriladi. Bulardan mantiq bilishning metodi, mavjudotni o'rganish u haqida fikr yuritishning ilmiy usuli sifatida talqin etiladi. "Mantiq, deb yozadi Ibn Sino - insonga shunday bir qoida beradiki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi", mantiq yordamida inson haqiqiy bilimni yolg'ondan ajratadi va noma'lum narsalarni o'rganadi.

Ibn Sino "Shifo kitobi" va "Tabiat durdonasi" asarlarida jismlarning o'zaro aloqadorligi va bir-biriga ta'siri tushunchalari orqali, Oy, Quyoshning odamlarga, hayvonot va o'simliklar olamiga ta'siri, yomg'ir, qor, do'l, sabzavotlar pishishining tezlashuvi, kishilar tanasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarning asl sabablarini yoritib bergan. Ibn Sinoning fikricha inson omiliga tabiiy va ijtimoiy muhitlarning ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning taraqqiyotiga jonli mushohada va ijtimoiy tabaqalarning ta'siri muhim ekanligi qayd etilgan. Voqelikni ma'naviy o'zlashtirish inson zotiga xos. Insonning hayvonlardan farqi shundaki, Ollah unga aql in'om etgan. U tufayli, inson, ezgulikni yovuzlikdan, intellektual etuklikni yolg'on-yashiq, adashishdan, do'stni dushmandan ajrata oladi. Aql nuri insonni tasodifiy kuchlar ta'siridan ozod shaxsga aylantiradi. Aql "donishmandlik tarozisi"dir. Bilish jarayonida, sezgi a'zolari va ularga tayangan, mushohada aqlning eng yaqin

ko'makchilari vazifasini bajaradi. Mantiq ilmi vositasida, inson, bilmagan narsasini, oldin bilib olgan narsasi orqali bilib boradi, to'g'ri tafakkur yuritish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Abu Ali ibn Sino asarlarida harakat, zamon va makon, ularning materiya bilan munosabatlari masalalari muhim o'rin olgan. U harakat va materiallarning uzviy birlikda ekanini ta'kidlaydi. "An-Najot" asarida harakat jismning o'zgarishiga tomon og'ib borishidan boshlab undagi o'zgarish holatidan iborat ichki imkoniyatlardan amaliy ta'sirga aylantirib boruvchi uzluksiz jarayonlarki, u faqat turtki oqibatigina emas.

Ichki imkoniyat, Ibn Sino nuqtayi nazaricha, aktiv kuchi amaliy ta'sir etayotgan sabab ahvolidir, shuning uchun ham amal qilayotgan sababning amaliy ta'siri ifoda etiladi. Misol uchun olovning issiqlik harorati. Harakat jismning makonda o'rin almashtirishidagina iborat bo'lmay, balki bu tushuncha ma'noga egadir. Mutafakkir ta'kidlaydiki, odatda harakat o'rin almashuv ta'kidlanadiki, biroq endilikda bu tushunchaning ahamiyati makon harakatiga qaraganda umumiyroq bo'lib o'zgardi [8].

Abu Ali ibn Sino harakatni keng ma'noda tushunadi, uningcha, harakat buyumning o'zgarishi, bir holdan boshqa holga o'tishidir. Buyumlarning bir holdan boshqa, yangiga, imkoniyatlardan voqelikka aylanishi sharoitiga qarab asta-sekin yoki birdaniga amalga oshadi.

Abu Ali ibn Sino bu mulohazalarida quyidagilar alohida ta'kidlanadi:

- 1) materiya va harakat birligi;
- 2) harakat materiyaning ichki ahvoli;
- 3) materiya singari harakat ham obektiv harakatga ega;
- 4) harakat predmetning o'rin almashuvigina bo'lmay keng ma'noda predmetning o'zgarishi, bir holdan yangi holga o'tishi, sifatida o'zgarishidan iborat.

Abu Ali ibn Sinoning bu mulohazalari va xulosalari, xarakterni tushinishi unda aniq ifoda etilgan materialistik tendentsiya va dialektika elementlari borligidan dalolat beradi [9].

Abu Ali ibn Sino fikricha, jismlarning har qanday harakati amalga oshadi yoki o'z-o'zidan (misol uchun, toshning tushishi yoki issiq suvning o'z-o'zidan sovishi) yoki boshqa jismning ta'siri ostida amalga oshadi (misol uchun, kamon orqali o'qning otilishi, olov issiqligi orqali suvning isishi kabilar). Harakat bilan bir qatorda uning manbayini ham Abu Ali ibn Sino materialistik tushinadi. Uningcha, buyumlarning harakati qandaydir kuch ta'siri ostida vujudga keladi, bu kuch esa tabiatning o'zidir, chunki jismlarning harakati, o'zgarishlari va ulardagi xususiyatlarning o'zgarishi tabiatning mohiyatidan kelib chiqadi. Harakat qandaydir kuchdan kelib chiqadi, agar bu kuch iroda bilan taqozo etilgan bo'lmasa, demak, bu kuch tabiat deb ataladi, chunki tabiat jismdagi tinchlik va harakatning eng yaqin sababidir, degan edi Abu Ali ibn Sino.

"Donishnoma"da Abu Ali ibn Sino harakatning quyidagi uch asosiy shaklini ta'kidlaydi: 1) aksidental harakat; 2) majbur etilgan harakat; 3) tabiiy harakat.

1. Aksidental harakat-jism boshqa jismda bo'lib o'sha jism harakati bilan birga harakat qiladi, bir o'rindan boshqa o'ringa ko'chadi, lekin bu jism paroxoddagi o'z o'rnini o'zgartirmaydi.

2. Majbur etilgan harakat (dvijeniye po prinujdeniyu)-jismning o'z harakati emas, harakatning sababi jism mohiyatidan tashqarida. Masalan, ot aravani tortadi, suv tashiydi, odam olov yoqadi, toshni otadi va boshqalar.

3. Tabiiy harakat-jismning o'z-o'zidan harakati. Olovning ko'tarilishi, shamolning ko'tarilishi, toshning pastga tushishi kabilar. Tabiiy harakat ikki xil bo'lishi mumkin: doira atrofidagi aylanma harakat va to'g'ri chiziqli harakat.

Doira ichidagi aylanma harakat-jismning bir holdan boshqa holga o'tishi ya'ni jismning o'zgarishidan iborat. Jismning to'g'ri yo'ldagi harakati esa jismning bir o'rindan boshqa o'ringa o'tishidir. To'g'ri yo'l bilan harakat o'z o'rnida ikki xil bo'ladi: yuqori ko'tarilgan harakat. Bu jismning engillik oqibatidir. Masalan, suv, tosh kabi [10].

To'g'ri yo'ldagi harakat ham ikki xil bo'lishi mumkin: a) tezroq va to'g'riroq harakat. Bunday harakat aralash jismlardan iborat bo'lmagan, toza jismlarda bo'ladi: b) sekinroq va qiyshiqroq harakat. Bunday harakat aralash tarkibga ega bo'lgan jismlarda bo'ladi.

Abu Ali ibn Sino miqdoriy harakat shakllariga ham alohida ahamiyat beradi. Olimning fikricha, miqdoriy harakat ikki xil bo'ladi

1. Oziq-ovqat miqdori bo'yicha harakat. Bu harakat o'z navbatida yana bo'linadi: o'sish va kamayish harakati.

FALSAFA

O'sish-organizm tomonidan qabul qilingan oziq-ovqat hazm qilish oqibatidir. Bu xususiyat hayvonlarga va o'simliklar organizmiga xosdir. Kamayishi yoki ozish organizm tomonidan qabul qilish lozim bo'lgan oziq-ovqatning kamayib boruvchi oqibatidir.

2. Oziq-ovqatsiz miqdoriy harakat. Bu harakat, Abu Ali ibn Sino fikricha, asosan jonsiz tabiatga xosdir. Bu harakat ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi: zichlik va nozichlik harakati (g'ovaklik) [11].

Zichlik harakati jismning biror qismini yo'qotmay turib kamayishidir. Masalan, suv sovusa kamayadi, zichlanadi, suv muzga aylansa yana ham zichlanadi, tuproq toshga aylansa yana zichroq bo'ladi. Nozichlik (g'ovaklik) harakati jismning tashqaridan qo'shimchasiz o'sishga intilishidan iborat. Masalan, suv isiganda kengayadi va nozichlanadi, bo'shashadi [12].

Yuqoridagi mulohazalardan ko'ramizki, Abu Ali ibn Sino harakatni turlarga bo'lishga urinib asosan uning faqat miqdori tomonini ko'zga tutadi, lekin bu erda ham harakatni o'zgartirish sifatida dialektik tahlil qiladi. Bunday dialektik tahlilni materiyaning tabiiy harakati, organizmning harakati tahlilida aniq ko'rish mumkin. Bu xulosaga faqat 500 yil o'tgach, XVII asrda frantsuz olimi va mutafakkiri Rene Dekard ham keldi. U materiya asosida harakat yotadi, harakat materiyaning tabiiy holati ekanini ta'kidlaydi. Lekin Abu Ali ibn Sino mulohazalaridagi dialektik elementlar undagi qarama-qarshi, mexanistik va metafizik mulohazalar bilan to'qnashadi.

Abu Ali ibn Sino mulohazalarida muhim va yorqin dialektik elementlar bo'lishiga qaramay, u harakat masalasida mexanitsizm ta'sirida edi. O'z mexanitsizmini konkretlashtirib harakat va harakatlantiruvchi to'g'risida to'xtab, quyidagi harakat elementlarini ta'kidlaydi; 1) xarakterlantiruvchi; 2) harakat; 3) masofa; 4) boshlama nuqta; 5) oxirgi; 6) vaqt.

Harakatning elementlari to'g'risidagi Abu Ali ibn Sinoning bu mulohazalarida harakatni mexanistik tushunish, qandaydir harakatlantiruvchini ta'kidlash o'zgarishning ko'proq miqdoriy tomoniga e'tibor berish mutafakkirning mulohazalarida metafizika ta'siri borligidan dalolat beradi [13].

Harakatning obektiv harakatini etirof etish bilan bir qatorda Abu Ali Ibn Sino sukunati (tinchlikni) va uning obektiv xarakterini ham e'tirof etadi. Sukunat mutafakkir nuqtayi nazaricha harakatning qarama-qarshisidir. Jismning o'rniga nisbatan miqdor va sifat bo'yicha barobar harakati shunday holga olib keladi, uni biz sukunat deymiz. Tinchlik tabiiy va majburiy bo'lishi mumkin. Tabiiy tinchlik-jism o'z tabiiy o'rnidan qo'zg'almaydi va o'zga o'rnini istamaydi. Majburiy tinchlik-jism o'z o'rnini istamay boshqa o'ringa intiladi. Masalan, tosh havoga tashlansa, u muayyan tinchlikka-o'ringa intiladi. Bu sukunatni juda sodda tushinishdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, jamiyatimiz shiddat bilan o'zgarib borayotgan bir sharoit globalizatsiya jarayonida Ibn Sino merosidan foydalanish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy, axloqiy, madaniy komil insonlar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Abu Ali ibn Sino nuqtai nazaricha, harakat makon va zamon bilan, ularning obektiv harakati bilan uzviy ravishda bog'liq. Mutafakkirning falsafa sohasidagi materiya, harakat va rivojlanish, ilmiy bilish va kategoriyalar to'g'risidagi mulohaza va xulosalari uning tabiiy-ilmiy qarashlari va xulosalari uchun materialistik tendensiya hamda dialektik elementlar ancha kuchli. Biroq bu masalalar ustida kelgusi maqolalarimizda alohida to'xtab o'tamiz. Zero, alloma fikrlarining asl mohiyati inson hayot taraqqiyoti davomida olgan barcha bilim, ko'nikma va malakalarini ijtimoiy muhit ta'sirida jonli voqelikka aylantirib boradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Али ибн Сино. Донишнома, 232-бет.
2. Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или четыре беседы, М., 1963, с. 113-114.
3. Мирзаев С. Ибн Синонинг Шаркшунослик институтида мавжуд асарлари, Библиография, Тошкент, 1955.
4. Жалолиддин Нуриддинов. Одоб инсон кўрки. Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа уйи. 2017.-Б.164.
5. Аль-Фараби. Социально-этический трактаты. Алма-Ата «Наука», 1993, стр.3
6. Ibn Sina Kanon vrachebnoy nauki. Kniga I. Tosh., 1981
7. Bakhtiyorovich, D. B. (2019). Tolerance of the Khojaghand-Nakbandian order of tolerance. *Indonesian Journal of Education Methods Development*, 8, 10-21070.
8. Tursunovna, S. O., Bakhriddinovich, M. S., Bakhtiyorovich, D. B., & Makhmudovna, G. M. (2020). The issues of human and humanity in the teaching of Abdulkhaliq Gijduvani. *Journal of Critical Reviews*, 7(4), 14-17.

9. Шодиев, Д. Д. (2023). INSON QADRI VA UNING MANFAATLARI HAMMA NARSADAN USTUN. *НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "МА'МUN SCIENCE"*, 1(2).
10. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. *SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY*, 2(13), 191-197.
11. Ибн Сино. Тиб қонунлари, 1-4 китоблар, Тошкент, 1954-1960
12. "Ибн Сино таржимаи ҳоли", "Гулистон" журнали, 1976, 6-сон (арабчадан ўзбекчага А.Ирисов таржима қилган).
13. Абу Али ибн Сино. Рисолат-фи-л-аҳд, Қоҳира, 1956, 143-бет